



TOSHKENT VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2021- yil 1- may holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021-yil 1-may holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbir qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1 may holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2021- yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)

4

31 026



Mas'uliyati
cheklangan jamiyat

4 138



Oilaviy korxonona

267



Unitar korxonona

6 554



Xususiy korxonona

50



Aksiyadorlik jamiyati


335



Boshqa korxonalar


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- may holatiga ko'ra, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-aprel oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar-aprel oylarida, birlikda)




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar



(1-may holatiga ko‘ra, birlikda)




Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **26,2**foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish
 ■ O‘rmon xo‘jaligi
 ■ Baliq xo‘jaligi




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-may holatiga ko'ra, birlikda)


7



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **15,8 foizga oshdi**



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



451



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

8 220



Ishlab chiqarish sanoati

65



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

188




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2021- yil 1-may holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlarini soni 8924 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 15,8 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlarini ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 16,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 92,1 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 14,2 % ga (jami sanoatdagi ulushi 5,1 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 3,2 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,7 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 15,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 2,1 %) o'sishidir.




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **15,8 foizga oshdi**




Kichik tadbirkorlik subyektlarisoni




15,8 foizga oshdi



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




19,3 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




3,8 foizga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




O'tgan yilga nisbatan **34,6 foizga oshdi**



Xususiy korxonalar



Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-may holatiga ko'ra, birlikda)




2021- yil 1-may holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 3 711 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 15,8 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu – bino va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 12,7 % ga (jami qurilishdagi ulushi 52,3 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 18,8 % ga (jami qurilishdagi ulushi 7,7 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 19,5 % ga (jami qurilishdagi ulushi 40,0 %) o'sishidir.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-may holatiga ko'ra, birlikda)

2021- yil 1-may holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 13 437 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 26,0 % ga oshdi.

Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 25,1 % ga (jami savdodagi ulushi 69,2 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 29,1 % ga (jami savdodagi ulushi 23,9%), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan – 24,6 % ga (jami savdodagi ulushi 6,9 %) o'sishidir.



- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

• Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

741



• Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

25



• Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

26



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2021-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)



324

yashash bo'yicha xizmatlar



3 260

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar


2021-yil 1-may holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 3 584 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 16,2 % ga oshdi.


Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 15,2 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 91,0 %), yashash bo'yicha xizmatlarning – 27,1 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 9,0 %) o'sishidir.



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- may holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- may holatiga ko'ra 4 592 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 118 taga yoki 32,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 4 138 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1041 taga yoki 33,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 424 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 62 taga yoki 17,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- may holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1 may holatiga ko'ra 34 837 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6 168 taga yoki 21,5 %ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 31 026 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5863 taga yoki 23,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 407 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 420 taga yoki 21.1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2021- yil 1- may holatiga ko'ra, 1 484 tani tashkil etib, ulardan 1 348 tasi yoki 90,8 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 125taga yoki 17,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-apreloylarida viloyatimizda 52 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-aprel oylarida, birlikda)



Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining qo'shma korxonaga va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi

(2021- yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonaga	xorijiy korxonaga
Toshkent viloyati	1484	741	743
Oqqo'rg'on t.	14	6	8
Ohangaron t.	85	37	48
Bekobod t.	11	8	3
Bo'stonliq t.	66	34	32
Bo'ka t.	14	9	5
Quyichirchiq t.	45	24	21
Zangiota t.	188	89	99
Yuqorichirchiq t.	128	63	65
Qibray t.	160	82	78
Parkent t.	24	13	11
Piskent t.	20	10	10
O'rtachirchiq t.	91	42	49
Chinoz t.	25	11	14
Yangiyo'l t.	80	30	50
Toshkent t.	86	55	31
Nurafshon sh.	63	30	33
Olmaliq sh.	50	14	36
Angren sh.	111	74	37
Bekobod sh.	27	17	10
Ohangaron sh.	49	22	27
Chirchiq sh.	82	50	32
Yangiyo'l sh.	65	21	44

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar


Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Toshkent viloyati

Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Tel.:71 202-86-83